



## O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI MUSTAHKAMLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

uchinchi darajali yurist

Lapasov Dilshod Abdusaid o‘g‘li Telefon  
+998(93)322-11-44

[fayzona2017@gmail.com](mailto:fayzona2017@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Intellectual activity results through application in economic sectors, social and other fields by applying the results of intellectual activity is considered one of the important conditions for the rapid development of the Republic of Uzbekistan. The rapid introduction of modern information and innovative technologies to economic sectors, social and other fields by applying the results of intellectual activity is considered one of the important conditions for the rapid development of the Republic of Uzbekistan.*

**Annotation:** *The rapid introduction of modern information and innovative technologies to economic sectors, social and other fields by applying the results of intellectual activity is considered one of the important conditions for the rapid development of the Republic of Uzbekistan. The rapid introduction of modern information and innovative technologies to economic sectors, social and other fields by applying the results of intellectual activity is considered one of the important conditions for the rapid development of the Republic of Uzbekistan.*

**Kalit so‘zlar:** *Intellect, property rights, inventions, patents, results of intellectual activity, intellectual property objects, copyright, related rights.*

**Key words:** *Intellect, property rights, inventions, patents, results of intellectual activity, intellectual property objects, copyright, related rights.*

Mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlariga intellektual faoliyat natijalari va innavotsiyalarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqaviy brendlarni yaratish, kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasining oldini olish, intellektual mulkning ishonchli himoyasini ta`minlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 26-aprel 2022-yil 221-son PQ “Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida” gi qaroriga muvofiq intellektual mulkni ishonchli



himoya qilish, intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda kontrafakt mahsulotlarga samarali qarshi kurashish, shuningdek,

Yangi O`zbekistonning 2022-2026-yillarga mo`ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish uchun bir qator maqsad qo`ygan. Unga ko`ra intellektual mulk obyektlarining oldi-sotdisiga qulay shartsharoitlar yaratish uchun “Intellektual mulk-barcha uchun” maxsus internet- auksion savdo platformasi Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Intellektual mulk obyektlari- intellektual faoliyat natijalari, fan, adabiyot va san`at asarlari hamda sanoat namunalari barcha davlatda huquqiy himoyaga olingan.

Bu toifadagi mahsulotlardan dunyo jamoatchiligi bahramand bo`lishi uchun esa kelishuv va shartnomalar asosida boshqa davlatlarda ham foydalanishga yo`l qo`yilgan. Buning uchun ham milliy, ham xalqaro-huquqiy asoslar va mexanizmlar yaratilgan. Davlatlararo xalqaro hamkorlikni ta`minlash maqsadida xalqaro universal hukumatlararo tashkilotlar tuzilgan. Har qanday mamlakatning rivojlanganlik darajasi undagi intellektual mulkning rivojlanganlik darajasiga qarab belgilanadi. Shuning uchun barcha mamlakatlarda o`z intellektual mulkini rivojlantirish borasida, ayniqsa, bu mulkning davlatda va butun dunyoda himoyalashiga katta e`tibor qaratiladi.

1967-yil 14-iyul kuni Stokgolm shahrida imzolangan Butunjahon intellektual mulk tashkilotini tashkil etish haqidagi konvensiya asosida tashkil etilgan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) intellektual mulkni xalqaro himoya qilishda o`rni katta. Ushbu tashkilot 1974-yil dekabr oyida BMTning hukumatlararo xalqaro tashkiloti degan maxsus maqomni olgan. Tashkilotning vazifasi – dunyoda davlatlar o`rtasida kelishuv va bitimlar asosida intellektual mulkni himoya qilishni muvofiqlashtirish hamda shu sohadagi turli shartnoma va konvensiyalarning ma`muriy boshqaruvini ta`minlashdan iborat. Bugungi kunda dunyoning 180 dan ortiq davlati BIMTning a`zosi hisoblanadi. O`zbekiston 1991-yil 25-dekabrda mazkur Tashkilotning teng huquqli a`zosi.

Mamlakatimiz BMTning 14 ta xalqaro hujjatini tasdiqlagan. 2000-yili Butunjahon intellektual mulk tashkilotiga a`zo davlatlari o`rtasida 26-aprel – “Xalqaro intellektual mulk kuni” sifatida nishonlanishi kelishilgan. 2001-yildan boshlab ushbu sana har yili butun



dunyoda nishonlab kelinmoqda. Intellektual mulk – bu turli zamonlarda insonlar o‘zining ongi va tafakkuri, bilimi va qobiliyati yordamida kundalik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda turli sohalarda yaratgan ijod mahsulotlari yoki mulklari. “Intellekt” lotincha so‘z bo‘lib, “aql” degan ma‘noni anglatadi. Bu mulklarni zamonaviy texnologiya sohasi, fan va adabiyot sohasi yoki sanoat va kimyo sohasi singari boshqa bir qator sohalarning rivojlanishi, yangiliklar yaratilishi va tatbiq etilishi misolida sanab o‘tish mumkin.

Inson salohiyati bilan yaratilgan intellektual mulkning himoya qilinishi, ommaga taqdim etilishi, moliyalashtirilishi, shuningdek faoliyatini davom ettirishi, ayniqsa, uning muhofaza etilishi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, Fuqarolik Kodeksida alohida belgilab o‘tilgan. Intellektual faoliyat natijalari. Intellektual faoliyat o‘z xarakteriga ko‘ra, inson faoliyatining eng oliy ko‘rinishi – ijodiy faoliyat hisoblanadi. Inson ijodiy faoliyati bu faoliyatni amalga oshirish usul-vositalari, faoliyat mahsullari xususiyatlariga ko‘ra inson ongli faoliyatining boshqa ko‘rinishi odatdagi, kundalik faoliyatidan farq qiladi.

Intellektual faoliyat natijalariga quyidagilar kiradi:

- fan, adabiyot va san‘at asarlari; - ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoki eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma‘lumotlar bazalari;

- ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

- seleksiya yutuqlari;

- oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau).

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovarlari, ishlar va xizmatlarning xususiy unsurlarini aks ettiruvchi vositalarga nisbatan bo‘lgan huquqlarga ham mutlaq huquqlar haqidagi qoidalar qo‘llaniladi. Ma‘lumki, fuqarolik muomalasida turli-tuman subyektlar ishtirok etadi, ayni vaqtda, muomalada xilma-xil mahsulot va xizmatlar harakatda bo‘ladi.

Mana shunday sharoitda subyektlar, ular ishlab chiqargan tovarlar va ko‘rsatadigan xizmatlar alohida farqlash belgilariga ega bo‘lishi shart, aks holda, turli anglashilmovchilik, qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. Ana shunday farqlash belgilari fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining o‘zlarini, uning ishlab chiqargan tovarlari, bajaradigan ishlari va ko‘rsatadigan xizmatlarining xususiy alomatlarini (individual belgilarini) aks ettiruvchi vositalar hisoblanadi.



Bunday alohida farqlash belgilarining quyidagi turlari mavjud:

- firma nomlari;
- tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);
- tovar chiqarilgan joy nomi.

Ma'lumki, intellektual faoliyat eng tez rivojlanib borayotgan dinamik jarayon hisoblanadi. Yuksak sur'atlar bilan davom etayotgan bu jarayon natijasida intellektual faoliyatning yangi mahsullari vujudga kelmoqda. Masalan, topogral va integral mikrosxemalar. Garchi ular mavjud qonunlarda nazarda tutilmagan bo'lsa ham ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1031-moddasi uchinchi qismida belgilangan qoidalar mazmunidan kelib chiqib, intellektual mulk haqidagi qoidalar qo'llaniladi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining ular ishlab chiqarayotgan tovarlar, ko'rsatadigan xizmatlarining yangi farqlash belgilari vujudga kelishi mumkin va bunday holda ham ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining IV bo'limiga tegishli qoidalar qo'llaniladi. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish deganda bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlar sohibi huquqlarining qonuniy jihatdan qo'riqlashini vujudga keltirish asoslari tushuniladi. Binobarin, intellektual mulk obyekti o'z-o'zidan huquqiy muhofaza ostiga olinmaydi, balki bu obyektga nisbatan sub'ektiv huquqlarga ega bo'lgan shaxslar muallifning shaxsiy huquqlari, mutlaq huquqlar sohibining huquqlari, litsenziya asosida foydalanuvchining huquqlari, avvaldan foydalanuvchining huquqlari va shu kabilar huquqlari huquqiy jihatdan muhofaza ostiga olinadi. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza ostiga olish: - ularning yaratilganlik fakti asosida; - O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza hujjati berilishi asosida vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotga nisbatan huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi. Intellektual ob'ektlarning quyidagi turlari bo'yicha ularni huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilishi (vujudga kelish) fakti asosida sodir bo'ladi: - fan, adabiyot va san'at asarlari;

- IT uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
- ijrolar, ijrolarni sahnalashtirish, eshittirish va ko'rsatuvlar;



- topologik va integral sxemalar.

Intellektual mulk quyidagi obyektlarining huquqiy muhofazasi davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza yorlig'i berilishi asosida vujudga keladi:

- ixtiro, sanoat namunasiga nisbatan – patent beriladi;
- foydali modelga nisbatan – guvohnoma beriladi («Ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar to'g'risida»gi Qonundan);
- seleksiya yutuqlariga nisbatan – patent beriladi;
- tovar (xizmat ko'rsatish) belgisiga nisbatan u davlat ro'yxatidan o'tkazilib – guvohnoma beriladi;
- firma nomi davlat ro'yxatidan o'tkazilib (reestrda kiritilib) bu haqda – dalolatnoma beriladi;
- tovar chiqarilgan joy nomiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilib – undan foydalanish huquqi to'g'risida guvohnoma beriladi. Mutloq huquqlar- bunday huquq egalari turli harakatlar sodir etish (ijodiy faoliyat mahsulidan foydalanish, uni tasarruf etish kabi) bo'yicha haqdorligi, vakolatlilikini va ayni vaqtning o'zida boshqa har qanday shaxslarga bunday yuqorida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etishning taqiqlanishini ta'minlovchi subyektiv mutlaq huquq tushuniladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan tahlillar intellektual faoliyatni rivojlantirish, ilg'or intellektual faoliyat natijalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo'nalishdagi o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, intellektual mulk obyektlari qo'llangan mahsulotlar hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda o'z nomiga (brendiga) ega bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko'rsatadi.

Xususan: intellektual mulk obyektlarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish ko'rsatkichlari juda pastligi, aholi va tadbirkorlik subyektlari intellektual mulk sohasi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligi hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z faoliyatiga intellektual faoliyat natijalarini joriy qilishdan manfaatdor emas va ixtirochilar va novatorlar uchun qulay shartsharoitlar yaratilmaganligidir. Qayd etilgan kamchiliklar mamlakatimizda intellektual mulk sohasining jadal rivojlanishiga, jahon



bozorlarida O‘zbekiston nomini ifoda qiluvchi mahsulotlar eksporti hajmining ortishiga, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, iqtisodiyotning o‘shishiga hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu munosabat bilan 2022 — 2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi qabul qilinishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. “Intellektual mulkning samarali huquqiy muhofazasidan — kuchli huquqiy himoyasi sari” tamoyili asosida intellektual mulkni jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini rivojlantiruvchi asosiy drayverga aylantirish orqali O‘zbekistonni ilmiy-texnikaviy va ixtirochilik jihatdan taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kiritish hamda mintaqaviy brendlarni hududlarni har tomonlama rivojlantiruvchi vosita sifatida yuzaga chiqarish mumkin.

Shuningdek 26-aprel 2022-yil 221-son PQ “Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq intellektual mulk sohasi bo‘yicha qonunchilikda mavjud bo‘shliq va ziddiyatlarni bartaraf qilish, ilg‘or jahon tajribasi asosida uni doimiy takomillashtirib borish, respublikada amalga oshirilayotgan ma‘muriy islohotlar doirasida intellektual mulk sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini mas‘ul vazirlik va idoralar faoliyatidagi bir-birini takrorlovchi vazifa va funksiyalarni bartaraf qilish orqali takomillashtirish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish jarayonlarini zamonaviy tendensiyalarni inobatga olgan holda muntazam takomillashtirib borish va intellektual mulk obyektlari yaratilishini qo‘llab-quvvatlash intellektual mulk obyektlarining ta‘sirchan huquqiy mexanizm bilan himoya qilinishini ta‘minlash intellektual mulk sohasini byurokratiyadan holi qilish maqsadida zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining intellektual mulkka bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha innovatsion usullarni qo‘llagan holda manzilli targ‘ibot tadbirlarini muntazam o‘tkazib borish intellektual mulk sohasi bo‘yicha global integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etishi intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

## **ADABIYOT TO‘PLAMLAMI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi



2. Fuqarolik kodeksi darslik Topildiyev
3. Fuqarolik kodeksiga sharx III TOM

## INTERNET SAYTLAR

1. Lex.uz
2. Adliya.uz

